

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.12.2019.I.03.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

RAXMONQULOVA GULIRA'NO MUROD QIZI

**SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION SALOHIYATINI
OSHIRISH
("O'zbekko'mir" aksiyadorlik jamiyati misolida)**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD)
философии по экономическим наукам**

Content of the Doctoral (PhD) dissertation abstract

Raxmonqulova Gulira'no Murod qizi

Sanoat korxonalarining investitsion salohiyatini oshirish
(“O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyati misolida)..... 3

Рахмонкулова Гулираъно Мурод кизи

повышение инвестиционного потенциала промышленных
предприятий(на примере акционерного общества "Узбеккумир")..... 27

Rakhmonkulova Gulirano Murad kizi

Increasing the investment potential of industrial enterprises
(on the example of Uzbekkumir Joint Stock Company)..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работы
List of published works..... 60

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.12.2019.I.03.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

RAXMONQULOVA GULIRA'NO MUROD QIZI

**SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION SALOHIYATINI
OSHIRISH
("O'zbekko'mir" aksiyadorlik jamiyati misolida)**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan №B2022.3.PhD/Iqt.2409.raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tdtu.uz) va "ZiyoNet" ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xusainov Ravshan Raximovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponenlar:

Irisbekova Mavluda Narinbayevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nigmatullayeva Gulchexra Nurullayevna
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.12.2019.I.03.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "_____" soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32. e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 1000, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32. e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" kuni tarqatildi.
(2025-yil "_____" dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A. Ikramov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d, professor

O.I. Begmullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, i.f.f.d. (PhD), dotsent

M.A. Tillyaxodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d. (DSc)
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon iqtisodiyotidagi global sifat o'zgarishlari, raqobat muhitining keskinlashib borishi va cheklangan resurslar sharoitida investitsiyalar oqimi ustuvor darajada "yashil energetika" va "toza ko'mir" texnologiyalariga ko'ra yangi ishlab chiqarish va texnologik modernizatsiyani tashkil qilishga yo'naltirilmog'ida. Ma'lumotlarga ko'ra "hozirgi darajadagi qazib olish darajasini ushlab turish uchun 2040-yilgacha jahon miqyosida tog'-kon va issiqlik energiya tarmog'iga 17 trln.dollar investitsiya kiritish talab etiladi, bu esa o'z navbatida jahon energetikasiga kiritiladigan jami investitsiyalarning 1/3 qismini tashkil qiladi"¹. Bugungi kunda jahonda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishda investitsiyalarni mintaqaviy va tarmoq uyg'unligida "klaster tizimi"ni rivojlantirish, "davlat va xususiy sektor hamkorligi"da investitsiya loyihalarini amalga oshirishda diversifikatsiyalangan moliyalashtirish amaliyotini ustuvor darajada amalga oshirish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda sanoat mahsulotlari, jumladan, energiya mahsulotlari sifati va raqobatbardoshligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda sohaga investitsiyalarni jalb etish va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada mavjud investitsion resurslardan oqilona foydalanish, mintaqaviy va tarmoq maqsadlari uyg'unligiga ko'ra investitsiyalar samaradorligini oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, iqtisodiy samaradorlikka ko'ra investitsiyalarning ijtimoiy samaradorligini ta'minlash, yangi ishlab chiqarishni tashkil qilishda investitsiyalar ekologik va texnologik uyg'unligining nazariy-uslubiy asoslariga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish kabi mavzulardagi tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar sharoitida sanoat tarmoqlarini yuqori texnologiyalar asosida jadal rivojlantirish, eksportni rag'batlantirish va raqobatbardosh tayyor sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish, mintaqalarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish maqsadlariga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligini oshirish va sanoat tarmoqlariga xususiy investitsiyalarni keng jalb etish kabilar borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshiriloqda. «Energetika sanoatini jadal rivojlantirish, investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari va aholining energetika mahsulotlariga bo'lgan talabini to'laroq qondirish va sohaning mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash darajasini oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish, xorijiy va xususiy investitsiyalar qulay shart-sharoitlar yaratish, kelishini ko'paytirish, narx shakllanishining erkin va shaffof mexanizmlarini joriy qilishga asoslangan elektr energiyasining ulgurji va chakana bozorlarini tashkil etish»kabi maqsadla belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishishda ko'mir sanoati xususiyatlariga ko'ra qazilmalar zaxirasi va ulardan foydalanish imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, investitsion salohiyatni oshirishda turdosh ishlab chiqarish sub'yektlari strategiyalarini muvofiqlashtirishning uslubiy asoslarini

¹ XXIV Петербургский Международный Экономический Форум. Энергетическая панель «Трансформация мировой энергетики» доклад И.И. Сечина. Мировая энергетика на распутье/ Санкт-Петербург/ 5.06.2021г.

tashkillashtirish, investitsion salohiyatni oshirishda loyihalarni tartibga soluvchi maqbul investitsiyalarni tanlash algoritmini takomillashtirish, sohani rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlarini asoslash kabi yo'nalishdagi tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktyabrdagi PF–169-son “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi farmonlari, 2017-yil 26-maydagi PQ–3012-son “2017–2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida”, 2018-yil 7-maydagi PQ–3698-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xalqaro tajribada sanoat korxonalarida investitsion faoliyatni amalga oshirish va rivojlantirishning turli jihatlarini G.Kerzner, R.Archibald, Dj.Pinto, G.Sipers, I.Mazur, V.Shapiro, D.Peydj, W.Kern, D.E.Fisher, R.J.Jordan, J.Rutterford, V.Berens, P.Xavranek va boshqa olimlar ishlarida ko'rish mumkin².

MDH davlatlarining taniqli olimlari V.K.Falsman, A.K.Chernovskiy, M.V.Gracheva, A.A.Gert, N.A.Suprunchik, O.G.Nemov, K.N.Kuzmin, N.V.Kalinkin, R.R.Imamov, I.V.Yoloxov o'z ishlarida neft-gaz sanoatidagi investitsion faoliyat samaradorligini oshirishning asosini ta'minlovchi mexanizmlar ishlab chiqishgan³.

O'zbekistonda investitsion faoliyatni tashkil etish va samarali rivojlantirish xususidagi masalalarni o'rganish bo'yicha Maxmudov N.M., Samatov G.A.,

² Керзнер Г., Мамонтов Е. Стратегическое планирование для управления проектами с использованием модели зрелости. – М.: ДМК, 2003. /Арчибалд Р.Д. Управление высокотехнологичными программами и проектами. - М.: Компания АйТи; ДМК Пресс, 2010. — 464 с. / Пинто Дж. К. Управление проектами // Пер. с англ. под ред. В. Н. Фунтова. - Санкт-Петербург, Питер, 2004. – 464 с. / Циперс Г. Л. Управление проектами: стандарты, методы, опыт. – М.: Олимп-бизнес, 2003. /И.И. Мазур В.Д. Шапиро Н.Г. Ольдерогге «Управление проектами» 2004г. / Пейдж Д. Мировая нефтехимия // Нефтегазовая вертикаль, 2013, № 10, с. 56-57. / Kern W. Investitionsrechnung/ W. Kern. – Stuttgart, 1974./ Fisher D.E., Jordan R.J. Security analysis & portfolio management – 2d ed.- Englewood Cliffs (N.J.) / D.E. Fisher, R.J. Jordan. – Prentice-Hall, 1979./ Rutterford J. Introduction to stock exchange investment – 2nd ed. /J.Rutterford. – L.Basingstoke: Macmillan, 1993./ Беренс В., Хавранек П. Руководство по оценке инвестиций/ В.Беренс, П.Хавранек. - М.: Интерэксперт, ИНФРА-М, 1995. - 528 с.

³ Фальцман В.К. Оценка инвестиционных проектов и предприятий / В.К.Фальцман. – М.: Теис, 1999. – 56 с./ Черновский А.К. Инвестиционная стратегия в условиях финансового рынка России: автореферат дис. на соиск. уч. ст. к. э. н.: 08.00.01: защищена 1995 /Черновский Алексей Константинович. – М.: 1995. – 22 с./ Волков И. М., Грачева М. В. Проектный анализ: учеб. Пособие для вузов/ И.М.Волков, М.В.Грачева. – М.: Банки и биржи: ЮНИТИ, 1998. –421с./ Герт А.А., Супрунчик Н.А., Немова О.Г., Кузьмина К.Н. Стоимостная оценка нефтегазовых месторождений и участков недр: учебно-методическое пособие / А.А.Герт, Н.А.Супрунчик, О.Г.Немова, К.Н.Кузьмина. - 2 изд., перераб. и доп.- М.: “Геоинформмарк”, 2010. - 195 с./ Калинин Н.В. Оценка инвестиционных решений в условиях неопределенности развития предприятия: дис. на соиск. уч. ст. к. э. н. 08.00.05: защищена 1999 / Калинин Николай Викторович. – Самара: СГЭА, 1999. – 206 с./ Имамов Р.Р., Ёлохова И.В. Моделирование управленческих решений при оценке инвестиционных проектов в нефтегазовой промышленности с учетом рисков факторов / Р.Р.Имамов, И.В.Ёлохова // Проблемы экономики и управления нефтегазовым комплексом. № 11, 2015.

Ikramov M.A., Maxkamova M.A., Burxanov A.U., Xonkeldiyeva G.Sh., Gaibnazarova Z.T., Allayeva G.J., Muratova Sh.N. Saidkarimova M.I., Saitkamolov M.S., Kurbanova D.A., Uvraimov I.A., Muxitdinova K.A va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar⁴.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №F1-100 "O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish va modernizatsiya qilish sharoitida mamlakatning investitsion salohiyatini oshirishning nazariyasi va shakllanish mexanizmlarining ilmiy asoslari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sanoat ("O'zbekko'mir" aksiyadorlik jamiyati) korxonalarini investitsion salohiyatini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarining investitsion salohiyatini oshirishning nazariy asoslari va investitsion faoliyatni oshirishning tartibi hamda o'ziga xos xususiyatlarini belgilash;

investitsion salohiyatni oshirishda xorijiy davlatlar investitsion salohiyati tahlili orqali O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlarini ko'rib chiqish;

sanoat korxonalarining investitsion salohiyatini oshirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmini loyihalarni asosiy fondlarga joriy etish bo'yicha takliflarini tahlil qilish;

sanoat korxonalarida investitsiyalarni jalb etishning eng asosiy yo'nalishlarini korxonaning optimal shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda aniqlash;

sanoat korxonalarining investitsion salohiyatini oshirish mexanizmi va uslubiyatlarini takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'zbekko'mir" AJ korxonalarining investitsion salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi olingan.

⁴ Maxmudov N.M. Makroiqtisodiy tahlil va prognoz qilish. Darslik. T.: Fan va texnologiya, 2014. 315 b.; Samatov G.A. *Инвестирование и проектный анализ. Учебное пособие.* ТГАУ, 2006. 35 с., Икрамов М.А. Стимулирование роста конечных результатов деятельности промышленных предприятий в условиях рыночных отношений: диссертация ... доктора экономических наук: 08.00.05 / Санкт-Петербург. инж.-экон. ин-т. - Санкт-Петербург, 1992. - 25 с. Махкамова М.А. Формирование организационно-экономического механизма управления инновационной деятельностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан. Дис... док.экон.наук. – Т.: 2004. – 291 с.; Burxanov A.U. Modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash asosida sanoat korxonalarini rivojlantirishning metodologik jihatlarini // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. 2015. № 5. 1-2 b.; Xonkeldiyeva G.Sh. Globallashuv sharoitida elektroenergetika tarmog'ida strategik boshqaruv usullaridan samarali foydalanish/ Iqtisodiyot va ta'lim jurnali. 2018/1/ - 48 bet/ Gaibnazarova Z.T. Innovatsion investitsiyalashtirish samaradorligini oshirishning nazariy asoslari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2012, 24-b., Аллаева Г.Ж. Анализ взаимосвязи устойчивого развития отраслей топливно-энергетического комплекса и роста валового внутреннего продукта / "Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 1/2018 (№ 00033), 10 bet Muratova Sh.N. Экономико-экологическое развитие топливно-энергетического комплекса в условиях модернизации экономики. Диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам 08.00.03/ Ташкент 2018-5 с. Саидкаримова М.И. Состояние и перспективы развития нефтегазовой отрасли Узбекистана/ International Scientific Journal "Internauka"<http://www.inter-nauka.com/> Saitkamolov M.S. O'zbekiston Respublikasi temp' yo'l tarmog'ida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish/ Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dapajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya 08.00.03/ Toshkent 2021-yil 5-bet, D.A.Kurbanova O'zbekiston Respublikasi neft va gaz sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda sohadagi amalga oshirilayotgan ishlar/ Iqtisodiyot va ta'lim jurnali. 2018/1/ - 61 bet/ Увраимов И.А. Обзор ключевых трендов на мировом и центрально-азиатском нефтегазовом рынке. Узбекский журнал нефти и газа. Т. Спец выпуск, май, 2013. С.28-35. Muxitdinova K.A. O'zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarini investitsion salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy metodologiyasini takomillashtirish. Monografiya. "Iqtisod-Moliya", 2023. 185bet.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib sanoat korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish, ulardan samarali foydalanishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar uslubiyatini takomillashtirish va undan samarali foydalanish jarayonlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tahlil, qiyosiy tahlil, tanlama kuzatish, statistik tahlil, ko‘p omilli ekonometrik tahlil, ekspert baholash, prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“O‘zbekko‘mir” AJ investitsion salohiyatini oshirishda qazib olish, qayta ishlash va yaqindan xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar investitsion strategiyalarini sinxron tarzda shakllantirish va amalga oshirish, yashil innovatsiyalarni joriy etish hamda ishlab chiqarish subyektlarining investitsion loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish algoritmini qarorlar va resurslar muvofiqligini sinxron ta‘minlashga ko‘ra tashkil qilishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi asoslangan;

sanoat korxonalarini investitsion salohiyatini oshirishda loyihalarni tartibga soluvchi maqbul investitsiyalarni tanlash algoritmi jarayonda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan elementlarning gorizontal va vertikal jihatdan uyg‘unligiga ko‘ra takomillashtirilgan;

investitsion salohiyatni takomillashtirishga ko‘ra Angren ko‘mir koni korxonasini 2024–2030-yillarga bo‘lgan davrda rivojlantirishning prognoz ko‘rsatkichlari asoslangan;

“O‘zbekko‘mir” AJda ko‘mir mahsulotini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan mablag‘larni o‘zlashtirish va mahalliyashtirish asosida 2023–2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarini investitsion salohiyatini oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlashtirilgan;

“O‘zbekko‘mir” AJning investitsion faoliyatiga ta‘sir etuvshi omillar tarkibi tizimlashtirilib, ulardan samarali foydalanish bo‘yicha takliflar asoslangan;

investitsion faoliyat samaradorligini oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajriba tahliliga ko‘ra respublika sanoat korxonalarining faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va “O‘zbekko‘mir” AJ va unga qarashli korxonalarining statistik ma‘lumotlaridan olingani, tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan uslubiy takliflar, tavsiya va xulosalar sanoat korxonalarida, xususan “O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyatida investitsion faoliyatni rivojlantirish, kadrlarni o‘qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlashda, investitsion faoliyat bilan bog‘liq jarayonlarni takomillashtirishga bag‘ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan ko‘mir sanoati korxonalarini investitsion dasturlarini ishlab chiqish, investitsion resurslardan samarali va maqsadli foydalanish, mutasaddi korxonalar dasturiy-tashkiliy faoliyatini takomillashtirish, korxonalarining investitsion barqarorligini oshirish chora-tadbirlari majmuini ishlab chiqishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ko‘mir sanoati korxonalarini investitsion salohiyatini oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

“O‘zbekko‘mir” AJ investitsion salohiyatini oshirishda qazib olish, qayta ishlash va yaqindan xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar investitsion strategiyalarini sinxron tarzda shakllantirish va amalga oshirish, yashil innovatsiyalarni joriy etish hamda ishlab chiqarish subyektlarining investitsion loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish algoritmini qarorlar va resurslar muvofiqligini sinxron ta‘minlashga ko‘ra tashkil qilishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi taklifi, jumladan, Angren ko‘mir koni korxonasi amaliyotiga joriy qilingan (“O‘zbekko‘mir” AJning 2024-yil 12-dekabrda 01-13/772-sonli ma‘lumotnomasi). Taklif korxonaning iqtisodiy samaradorligini 2023-yilga nisbatan 2024-yilda 2.8 %ga oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

sanoat korxonalarini investitsion salohiyatini oshirishda loyihalarni tartibga soluvchi maqbul investitsiyalarni tanlash algoritmi jarayonida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan elementlarning gorizontaal va vertikal jihatdan uyg‘unligiga ko‘ra takomillashtirish bo‘yicha taklif Angren ko‘mir koni korxonasi amaliyotiga joriy qilingan (“O‘zbekko‘mir” AJning 2024-yil 12-dekabrda 01-13/772-sonli ma‘lumotnomasi). Taklif maqsadli chora-tadbirlarni istiqbol maqsadlariga ko‘ra shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirishga hamda korxonada ishlab chiqarish samaradorligini (rentabellik asosida) 1,3 %ga oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

investitsion salohiyatni takomillashtirishga ko‘ra Angren ko‘mir koni korxonasini rivojlantirishning 2024–2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari taklifi Angren ko‘mir koni korxonasi faoliyatini istiqbolda rivojlantirishni asoslashda foydalanilgan (“O‘zbekko‘mir” AJning 2024-yil 12-dekabrda 01-13/772-sonli ma‘lumotnomasi). Taklif mazkur korxonaning ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish va innovatsion chora-tadbirlarga ko‘ra istiqbolda ishlab chiqarishdagi foyda hajmini 3,2 %ga oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

“O‘zbekko‘mir” AJda ko‘mir mahsulotini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan mablag‘larni o‘zlashtirish va mahalliyashtirish asosida 2023–2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari bo‘yicha taklif “O‘zbekko‘mir” AJ tomonidan istiqbolli rejalarni ishlab chiqishda foydalanilgan va aksiyadorlik jamiyatining amaliyotiga joriy etilgan (“O‘zbekko‘mir” AJning 2024-yil 13-sentyabrda 01-3240-sonli ma‘lumotnomasi). Taklif mavjud imkoniyatlardan yanada samarali va ichki moliyaviy resurslardan maqsadli foydalanishga, mahalliyashtirish darajasini oshirishga ko‘ra mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot ishi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, shulardan Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, shundan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibiy qismi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiya ishining umumiy hajmi 129 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti bayon etilgan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, muallif tomonidan nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sanoat korxonalarida investitsion salohiyatni oshirishning nazariy asoslari va uning o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobida mamlakat investitsion faoliyati rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari, mamlakatimizda sanoat korxonalarining investitsion salohiyatini oshirishga tashkiliy-iqtisodiy ta‘sir etuvchi omillar yoritilgan. Investitsion faoliyatni oshirishning xorij tajribasi va ularni mamlakatimizda tatbiq etishning o‘ziga xos jihatlari aks ettirilgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminov, D.G‘ozibekov, D.Tojiboyeva, tomonidan investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan va munosabat bildirilgan. A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlar tomonidan investitsiyalarning mazmun-mohiyati bo‘yicha bayon etilgan ta‘rifda: “investitsiyalar – foyda olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo‘yiladigan pul mablag‘lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklar”⁵, deb ta‘riflangan.


2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 26-maqsadida: “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rish. Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo‘yicha yangi tizimni yo‘lga qo‘yish, 2026-yilgacha xorijiy va mahalliy

⁵ Vaxabov AV., Xajibakiyev Sh.X., Murnillov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. T.: (Moliya) 2010, 303.b.

investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish” belgilangan. Shu nuqtayi nazardan olganda, iqtisodiyotni faol rivojlantirish keng miqyosdagi investitsiyalarni jalb qilish va undan oqilona foydalanish uchun yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni talab qiladi.

Bugungi kunda investorlar tomonidan investitsiya loyihalari turli faoliyat sohalarida amalga oshiriladi. Shu jihatdan bir qator iqtisodiy va yuridik adabiyotlarda investitsiya faoliyatining tasniflanishiga alohida o‘rganish obyekti sifatida qaraladi. Bunda umumiy fikr shundaki, investitsiya faoliyatining tasniflanishi bevosita investitsiyaning qanday turga xos ekanligi bilan bog‘liq holda izohlanadi. Investitsion loyihalashda investitsiya jarayonining asosiy ishtirokchilarining o‘zaro hamkorligiga davlat korxonalar investorlar hamkorligiga asoslangan jozibador investitsiya muhitini yaratishning iqtisodiy mexanizmi parallel jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

An’anaviy ravishda ushbu mexanizmni ikkita komponentga bo‘lish taklif etiladi: loyiha boshqaruvi pozitsiyasidan investitsiya jozibadorligini boshqarish va investorning investitsiya uchun loyihani tanlash to‘g‘risidagi qarori va investitsiya kiritishda maxsus qat’iy tamoyillarning mavjudligi investitsiyalardan foydalanishning yanada samaradorligini oshiradi (1-rasm).




1-rasm. Investitsiya loyihalarini izchil amalga oshirish tamoyillari⁶

Ayrim sanoat korxonalarini investitsion faoliyatni yaxshilash maqsadida puxta aniq yechimga ega bo‘lgan boshqaruv tamoyillariga tayanishsa bu ayni faoliyatning yuqori yutuqlarga ega bo‘lishiga olib keladi.

“O‘zbekko‘mir” AJning investitsion salohiyati, kompaniya faoliyatini rivojlantirish va modernizatsiya qilishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu salohiyatni baholashda quyidagi asosiy jihatlar va imkoniyatlarni ko‘rib chiqish mumkin:

⁶ O‘rganilgan adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi.




2-rasm. Korxonaga investitsion salohiyatini baholashning muhim omillari⁷

“O‘zbekko‘mir” AJning investitsion salohiyati ichki bozorning barqarorligi, tabiiy zaxiralarning boyligi va texnologik modernizatsiya uchun qulay imkoniyatlar bilan mustahkamlangan. Ushbu imkoniyatlar xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilishda muhim omil hisoblanadi.

Xorij mamlakatlari ko‘mir sanoati faoliyati hamda qazish investitsiyalarni jalb qilish holatini tahlillari jarayonida ko‘mirni qazish hamda uning eksport salohiyatini o‘rgandik. 2023-yilda dunyo bo‘ylab ko‘mir qazib olishning bozor qiymati taxminan 1989 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. 2023-yilda dunyodagi eng ko‘p ko‘mir iste‘mol qiladigan, shuningdek, dunyodagi eng ko‘p aholiga ega ikkita davlat edi: Xitoy va Hindiston iste‘mol qilgan. Xitoy misolida, bu global ko‘mir iste‘molining taxminan 56 foizini tashkil qiladi, Hindiston esa 13,4 foizni tashkil qiladi.

2022-yilda Indoneziya qariyb 471 million tonna ko‘mir eksport qildi va shu bilan uni dunyodagi eng yirik ko‘mir eksport qiluvchi davlatga aylantirdi. Avstraliya ikkinchi o‘rinni egalladi, o‘sha yili ko‘mir eksporti 359 mln tonnani tashkil etdi.

⁷ O‘rganilgan adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi.



3-rasm. Dunyo bo‘ylab ko‘mir eksport qiluvchi yetakchi davlatlar holati, (mln ton.)⁸

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “Xorijiy davlatlar va xalqaro moliya tashkilotlari rahbarlari, jahonning yetakchi ishbiarmonlari bilan muzokaralar o‘tkazilib, mamlakatimizga o‘nlab milliard dollar investitsiya jalb etish bo‘yicha 700 ga yaqin investitsiya bitimlari imzolandi. Shuningdek, o‘tgan yili asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 18 foizdan ziyod o‘sgan. Bu, o‘z navbatida, sanoat ishlab chiqarishining 14,4 foizga ko‘payishini ta’minlagan. Shunday qilib, 2019-yilgi Investitsiya dasturiga muvofiq jami 3 ming 200 dan ziyod investitsiya loyihasi doirasida qariyb 14 milliard dollar miqdoridagi kapital qo‘yilmalarni o‘zlashtirish rejalashtirilgan. Bunda 4 milliard dollardan ortiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish belgilangan”⁹.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Sanoat korxonalarining investitsion salohiyati tahlili va taraqqiyot yo‘nalishlari”** deb nomlanib, ushbu bobda sanoat tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalar dinamikasi va tarkibi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar holati va tahlili mablag‘larni jalb qilish yo‘nalishlari, investitsiyalarning ishlab chiqarish salohiyatiga ta’siri bo‘yicha taqsimlanishi tadqiq qilingan.


O‘zbekiston 2024-yilda investitsion salohiyatini oshirish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘ydi. Amalga oshirilgan islohotlar, yaratilgan qulay investitsiya muhiti va soliq imtiyozlari xorijiy investorlar uchun mamlakatni yanada jozibador

⁸ <https://www.statista.com/>

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 8-aprel kunidagi 2019-yilning birinchi choragida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarning amalga oshirilishini tahlil qilish, birinchi yarim yillikka doir vazifalarni belgilash masalalari bo‘yicha videosektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi.

qilmoqda. Bu esa iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga va yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga xizmat qilmoqda.

So‘nggi olti yilda yurtimizga xorijdan qariyb 50 milliard dollar investitsiya kirgan. O‘tgan yili yalpi ichki mahsulot ham, sanoat ham 6 foizga o‘sgan. So‘nggi olti yilda mamlakatimiz sanoatiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 7 barobar oshgan. Yoki so‘nggi uch yilda xorijdan 14 milliard dollarlik asbob-uskunalar olib kelingan. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga bu loyihalarni alohida nazoratga olib, jadallashtirish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.




4-rasm. O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining dinamikasi yillar kesimida (2018-2023y)¹⁰

Investitsiyalarning yillar davomidagi o‘zgarishiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 2018-yilda 124,2 trln. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi. 2023-yil 2018-yilga nisbatan qariyb 3,5 barobarga ortganini ko‘rishimiz mumkin bu esa mamlakatda har bir korxonada faoliyatiga asosiy kapitalga kiritilib borilayotgan investitsiyalarning salmoqli darajada oshishi yangi ish o‘rinlari va iqtisodiyotni keng jabhada rivojlanishiga katta turtki beradi.

Investitsion salohiyatni oshirish – bu mamlakat, hudud yoki tashkilotning investitsiyalarni jalb qilish qobiliyatini kuchaytirish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to‘plamidir. Quyida O‘zbekko‘mir AJning investitsion salohiyatini oshirishni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi keltirilgan (5-rasm).

¹⁰ O‘zbekiston respublikasi statistika ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



5-rasm. O'zbekko'mir Aj korxonalarida investitsion salohiyatni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi¹¹

“O'zbekko'mir” AJning investitsion salohiyatini oshirish orqali korxonaga yuqori texnologik, raqobatbardosh va barqaror daromadli tashkilotga aylanishi kutiladi. Bu nafaqat korxonaga, balki milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo'shadi.

¹¹ Muallif ishlanmasi.

1-jadval**Davlat investitsiya dasturi doirasida ko‘mir sanoatiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, (mlrd. so‘m)¹²**

O‘zlashtirish manbalari	JAMI	2018	2019	2020	2022	2023
Markazlashgan investitsiyalar	205,7	31,9	38,7	42,3	48,2	44,8
Davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	38,4	0,0	6,8	8,0	10,0	13,6
Markazlashmagan investitsiya hajmi	564,7	150,7	106,7	0,0	0,0	307,3

2023-yilda iqtisodiyotdagi barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2022-yilga nisbatan real hisobda 22,1 foizga oshib, 352,1 trillion so‘mga yetdi. Shundan, markazlashmagan investitsiyalar hajmi 26,2 foizga oshib, 307,3 trillion so‘mni tashkil etdi, markazlashgan investitsiyalar esa 0,7 foizga qisqarib, 44,8 trillion so‘mni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 13,6 trillion so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilgan. Shuningdek, 2024–2026-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturi doirasida xalqaro moliya institutlari ishtirokida umumiy qiymati 4,5 milliard AQSh dollariga teng 55 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan¹³.

2-jadval**“O‘zbekko‘mir” AJ tomonidan investitsiyalarni modernizatsiya va rekonstruksiya ishlariga jalb qilish dinamikasi, (mln. doll)¹⁴**

Yillar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Xususiy mablag‘lar	404,73	493,08	333,67	362,53	199,67	0,0
Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	0,0	0,0	134,70	435,50	850,7	0,0
Tijorat banklarining kreditlari	0,0	3,1	0,0	0,0	2,0	2,1

“O‘zbekko‘mir” AJ tomonidan investitsiyalarni modernizatsiya va rekonstruksiya ishlariga jalb qilish jadvaliga ko‘ra 2023-yilda obyektlarni ta‘mirlash bo‘yicha investitsion loyihalarni amalga oshirish keskin pasaygan. Unga ko‘ra, 2020-yilda 2019-yilga nisbatan 16,7 %ga, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 11 %ga investitsiyalarni jalb qilish kamayganligini ko‘rish mumkin.

¹² “O‘zbekko‘mir” AJ ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹³ <https://uzbekcoal.uz/uz>.

¹⁴ “O‘zbekko‘mir” AJ ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Bizga ma'lumki, elektr energiyasini samarali ishlab chiqarish har qanday jamiyatning rivojlanishi uchun zarurdir. So'nggi yillarda quyosh elektr stansiyalari va shamol stansiyalari issiqlik elektr stansiyalarini siqib chiqardi, bu turdagi energiya obyektlaridan foydalanish konsepsiyasini o'zgartirdi. Biroq, ko'mir, qo'ng'ir ko'mir, neft, tabiiy gaz va biomassa dunyoning ko'plab mintaqalarida arzon va keng tarqalgan energiya manbalari bo'lib qolmoqda.

3-jadval

“O‘zbekko‘mir” AJ tomonidan 2019–2023-yillarda ishga tushirilgan loyihalarning amaldagi holati¹⁵

Yillar	Ishga tushirilgan loyihalar	Ishga tushirilgan loyihalar ning umumiy qiymati (mln.doll)	Shu jumladan:				Yaratilgan yangi ish o‘rinlar soni
			O‘z mablag‘lari	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	Tijorat bank kreditlari	(O‘zTTJ) mablag‘lari	
JAMI	6	695,5	155,6	378,7	15,6	68,7	5600,0
2019	1	105,5	3,3	106,5	-	57,9	346
2020	1	165	103,0	77,8	1,2	47,2	1 684
2021	2	195,2	-	50,2	5,9	-	1 275
2022	1	170,2	-	143,5	1,2	-	1290
2023	1	59,6	48,9	-	7,3	-	1025

“O‘zbekko‘mir” AJ 2019–2023-yillarda umumiy qiymati 690,5 million AQSh dollariga teng oltita investitsiya loyahasini amalga oshirishni rejalashtirgan. Ushbu loyihalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: “Sharg‘unko‘mir” AJ modernizatsiyasi – 105,5 million dollar, “Angren” koni qurilishi – 165 million dollar. “Nishbosh” koni qurilishi – 175,2 million dollar, eskirgan uskunalarni almashtirish – 170,2 million dollar, Ishlab chiqarish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash – 15 million dollar, Temir yo‘l transporti modernizatsiyasi – 59,6 million dollar.

Bu loyihalar amalga oshirilishi natijasida 2025-yilga kelib ko‘mir qazib olish hajmi 2024-yildagi 6,5 million tonnadan 10 million tonnagacha oshish kutilgan. Loyihalar quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtirilgan: Korxonalarining o‘z mablag‘lari – 155,6 million dollar. Tijorat banklari kreditlari 15,6 million dollar. O‘zbekiston Tiklanish va Taraqqiyot Jamg‘armasi kreditlari – 68,7 million dollar. Xitoyning ShHT davlatlari uchun imtiyozli kreditlari – 378,7 million dollar.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekko‘mir” AJ korxonalarida investitsion salohiyatini oshirish istiqbollari**” nomli uchinchi bobida “O‘zbekko‘mir” AJda tog‘-kon sanoatida Investitsion loyihalarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, korxonalar faoliyatiga investitsiya kiritish va maqbul investitsiya

¹⁵ Korxonalar ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

loyihalarini tanlash algoritmi va investitsion faoliyat barqarorligi ko'rsatkichi xususida ilmiy yondashuvlar keltirilgan.

Izlanishlar jarayonida ishda ko'mir qazib olish xarajatlarini qisqartirish uchun, qazib olish va tashish ishlariga "KOMATSU HD 785" samosval texnologiyasini tatbiq etish tavsiya etiladi. "KOMATSU HD 785" – zamonaviy samosval yuk tashish mashinasi sanalib, u kamyoqilg'i, yuqori yuk tashish hamda xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha muhim vositadir. Shuningdek, xarajatlarni tejash, ko'mir konlaridan ko'mirni tashish tezligi va karbonatni atmosferaga chiqishini nisbatan kamaytiradigan afzallikka ega.

"Komatsu HD785-7" texnikasining investitsiyani oqlash hisob-kitobi uchun keltirilgan parametrlar asosida tahlil qilamiz.

4-jadval

"Komatsu HD785" og'ir yuk tashish texnologiyasining investitsion daromadlilikini baholash prognozi ¹⁶

Yil	Boshlang'ich mablag', ming. so'm.	15 %li daromad, so'm	Qo'yilma, mlrd. so'm	Natijaviy summa, ming. so'm
2024	13 992 375,00	2 111 231,25	180 000,00	16 283 606,25
2025	16 283 606,25	2 454 915,94	180 000,00	18 918 522,19
2026	18 918 522,19	2 850 153,33	180 000,00	21 948 675,52
2027	21 948 675,52	3 304 676,33	180 000,00	25 433 351,84
2028	25 433 351,84	3 827 377,78	180 000,00	29 440 729,62
2029	29 440 729,62	4 428 484,44	180 000,00	34 049 214,06
2030	34 049 214,06	5 119 757,11	180 000,00	39 348 971,17

Ishlab chiqarish xarajatlari 15,0 foiz, oylik ish haqi 15,0 foiz hamda daromad solig'i 12,0 foiz, aylanma mablag' 8,0 foiz va eskirish (amortizatsiya) fondi 12,0 deb hisoblasak, chiqim 62,0 ni tashkil etadi. Sof daromad 10 yilda 14,988 mlrd. so'mni, jami qo'yilmalar 18 mlrd. so'mni, 10 yil davomida jami daromad 38,7 mlrd. so'mni tashkil etadi. Korxonada mablag'i 3,0 foizga oshgan, daromad 20,0 foizni (QQS siz), sof daromad esa 8,0 foizni tashkil etadi. Buni muvaffaqiyatli loyiha, deb hisoblash mumkin.

"Investitsion salohiyat barqarorligi ko'rsatkichi"ni shakllantirishning birinchi me'yori bu "Yagona likvidlilik koeffitsiyenti"ni hisoblab chiqish va uning me'yori chegaralarini aniqlab olishdir. Tadqiqotimiz jarayonida biz "O'zbekko'mir" AJ ning investitsion faoliyati barqarorligini hisoblangan qiymatini tuzib chiqdik.

¹⁶ Muallif ishlanmasi.

“O‘zbekko‘mir” AJ ning Aylanma mablag‘larining aylanuvchanlik ko‘ffisiyenti”ning qiymatlari ¹⁷

Ko‘rsatgichning nomi	Me‘yoriy chegaralar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Sof aylanma mablag‘ning ulushi	-	0,21	0,26	0,23	0,16	0,18	0,18	8,98
O‘z aylanma mablag‘ning aylanuvchanligi	-	0,36	0,20	0,09	0,09	0,00	0,00	0,30
Aylanma mablag‘ning aylanuvchanlik ko‘ffisiyenti	0,5-1	0,28	0,23	0,14	0,12	0,00	0,00	1,64

“Investision faoliyat barqarorligi ko‘rsatkichi”ni shakllantirishning uchinchi me‘yori bu “Investision mablag‘lar qaytimi ko‘ffisiyenti” bo‘lib uning tarkibiy qismlariga jalb qilingan va o‘z mablag‘larining munosabati, investision mablag‘lar tarkibida uzoq muddatli qarzlarning ulushi, uzoq muddatli qo‘yilmalar tarkibi ko‘ffisiyenti va investisiyalarni qaytarishdagi aktivlar rentabelligi kabi ko‘rsatkichlarni kiritish aniqlanayotgan ko‘rsatkichning ahamiyatlilik darajasini oshiradi. Shu bilan birga bu ko‘rsatkichning me‘yoriy chegaralarini 0,2-1 oralig‘idagi qiymatlarni belgilash to‘g‘ri deb hisoblanadi.

“Investision mablag‘lar qaytimi ko‘ffisiyenti”ni hisoblash formulasi quyidagi bo‘ladi:

$$K_{imq} = \sqrt[4]{K_{jqo'z} * K_{imtqu} * K_{umqt} * K_{iqar}}$$

Bunda:

$K_{jqo'z}$ - jalb qilingan va o‘z mablag‘larining munosabati;

“Investition mablag‘lar qaytimi ko‘ffisiyenti”ning hisoblangan qiymatlari ¹⁸

Ko‘rsatkichning nomi Me‘yoriy chegaralar	Ko‘rsatkichning nomi Me‘yoriy chegaralar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jalb qilingan va o‘z mablag‘lari		2,00	2,09	1,07	0,78	0,86	0,90	0,44
Investision mablag‘lar tarkibida uzoq muddatli qarzlarning ulushi	-	0,54	0,56	0,39	0,43	0,43	0,40	0,20
Uzoq muddatli qo‘yilmalar tarkibi ko‘ffisiyenti -	-	1,31	0,12	1,80	1,96	0,19	1,96	4,52
Investisiyalarni qaytarishdagi aktivlar rentabelligi		0,008	0,001	0,002	0,010	0,003	0,0007	0,2456
Investision mablag‘lar qaytimi ko‘ffisiyenti	0,2-1	0,33	0,11	0,20	0,28	0,12	0,15	0,56

¹⁷ Muallif ishlanmasi

¹⁸ Muallif ishlanmasi

K_{imtqu} - investision mablag‘lar tarkibida uzoq muddatli qarzlarning ulushi;

K_{umqt} - uzoq muddatli qo‘yilmalar tarkibi koeffitsiyenti;

K_{iqar} - investitsiyalarni qaytarishdagi aktivlar rentabelligi.

Ushbu yuqorida keltirilgan 3 ko‘rsatkichning birlashtirilishi natijasida quyidagi yagona ko‘rsatkich “Investitsion faoliyat barqarorligi ko‘rsatkichi”ni shakllantirishga imkon paydo bo‘ladi.

“Investitsion faoliyat barqarorligi ko‘rsatkichi”ni hisoblash formulasi quyidagi bo‘ladi:

$$K_{ifbk} = \sqrt[3]{K_{yl} * K_{ama} * K_{ama}}$$

Bunda:

K_{yl} - yagona likvidlilik koeffitsiyenti;

K_{ama} - aylanma mablag‘larining aylanuvchanlik koeffitsiyenti;

K_{ama} - investitsion mablag‘lar qaytimi koeffitsiyenti;


7-jadval

“Investitsion faoliyat barqarorligi ko‘rsatkichi”ning hisoblangan qiymatlari

Ko‘rsatkichning nomi	Me‘yoriy chegara	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Yagona likvidlilik koeffitsiyenti	0,5-2	0,93	0,90	0,40	3,86	2,30	0,34	0,86
Aylanma mablag‘larining aylanuvchanlik koeffitsiyenti	0,5-1	0,28	0,23	0,14	0,12	0,00	0,00	1,64
Investision mablag‘lar qaytimi koeffitsiyenti	0,2-1	0,33	0,11	0,20	0,28	0,12	0,15	0,56
Investision faoliyat barqarorligi ko‘rsatkichi	0,1-1	0,036	0,011	0,010	0,012	0,0	0,0	0,775

Bu ko‘rsatkichlarning bir me‘yoriy chegarasi sifatida 0,1-1 oraliq olish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Ya‘ni aynan ushbu ko‘rsatkich amaliyotga joriy qilinishi natijasida “O‘zbekko‘mir” AJning investision faoliyati barqarorligi 2023 yilning 2 choragiga kelib sezilarli darajada o‘ydi va 0,775 ni tashkil qildi.


Shunday qilib, taklif etilayotgan yondashuvda oldin keltirib o‘tilgan ishlanmalardan farqli o‘laroq, ta‘sir etuvchi omillar va vositalar majmuini o‘z ichiga oladi, ularni to‘g‘ri qabul qilish natijasida tasdiqlangan investitsion faoliyat strategiyasining algoritmini tashkil etib, uning tarkibiy qismlaridan birini amalga oshirish uchun tavsiya etilgan zaruriy investitsion loyihalarning ro‘yxati hisoblanadi.



6-rasm. Tog‘-kon sanoatida Investitsion loyihalarni boshqarishning diagnostikalash modeli¹⁹

Taklif etilgan modelning elementlari investitsion faoliyat strategiyasining algoritmi “O‘zbekko‘mir” AJ tomonidan belgilab olingan maqsadlarga erishish vositasi sifatida investitsion loyihalarning portfelini shakllantirish imkonini beradi. Umuman olganda, korxonaning investitsion faoliyatni amalga oshirish strategiyasining algoritmini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun o‘zaro bog‘liq bo‘lgan elementlardan foydalangan holda jarayonlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda foydalanish taklif etildi.

¹⁹ Muallif ishlanmasi.



7-rasm. Korxonaga faoliyatiga investitsiya kiritish va maqbul investitsiya loyihalarini tanlash algoritmi²⁰

Korxonaga faoliyatiga investitsiya kiritish va maqbul investitsiya loyihalarini tanlash algoritmini ishlab chiqishda asosiy bosqichlarni amalga oshirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- mulk huquqini hurmat qilish;
- axborotga kirishni ta'minlash;
- tegishli kompaniyalarni jalb qilish;

tanlangan bozor segmentida investitsiya va togʻ-kon sanoatiga mos loyihalarini samarali amalga oshirish va rivojlantirish imkonini beruvchi loyihaning resurs bazasini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.

²⁰ Muallif ishlanmasi.

O‘zbekiston Respublikasi ko‘mir ishlab chiqarish tarmog‘ining ko‘rsatkichlari, ularga kiritilishi kutilayotgan investitsiyalarni ta‘sir etuvchi omillar bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik modelini ishlab chiqishda “O‘zbekko‘mir” AJ korxonasi statistika ma‘lumotlaridan foydalanildi, turli testlar yordamida modelni tadqiq etish va modelning statistik ahamiyatini aniqlash tarmoq rivojlanishida optimal boshqaruv, iqtisodiy va ishlab chiqarish yo‘nalishlarini bashorat qilish hamda ishlab chiqishga imkon beradi. “O‘zbekko‘mir” AJ 2015–2030-yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasini (8-jadval)da ko‘rishimiz mumkin.

8-jadval

